Bojxona xizmati fiskal faoliyatini takomillashtirish istiqbollari.....	847
Pardayev To'liqin Nasirovich, Farxodov Farrux Furqatovich, Nomozov Abduvohid bdurazzoq o'g'li	
Механизмы устойчивого управления малым и средним бизнесом в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта.....	852
Зокирова Фарангиз Тулкиновна	
Yashil bank xizmatlari va uni joriy etish bilan bog'liq muammolar.....	862
Makhmudova Mukhlisa Kodirjon kizi	
Barqaror qishloq xo'jaligi ta'minot zanjirlarida transport tizimlarini optimallashtirish.....	867
Turdiyeva Irodaxon Ismoil qizi	
Moliyaviy rejalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni.....	874
Pardayev Jamshid Muzaffarovich	
Mintaqa sanoatida kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va infratuzilmasini tashkil etish.....	881
Salayev Jasurbek Komilovich	
Surxondaryo viloyatida 2010–2024-yillardagi yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy statistik tahlili.....	888
Ismoilov Davronbek Ilxomjon o'g'li	
Yashil obligatsiyalar va barqaror moliyalashtirishning davlat qarzi siyosatiga ta'siri.....	893
Tilabov Nasrulla Tashmuratovich	
Модели Альтмана и Таффлера как инструмент диагностики финансовой устойчивости предприятий.....	897
Утемуратова Бибихон Даниловна	
Individual tadbirkorlik va mustaqil bandlik asosida olinadigan daromadlarni soliqqa tortishning fundamental asoslari.....	903
Yakubov San'abek Ravshanbekovich	
China's trade relations with Central Asia: an empirical analysis based on the trade gravity model.....	912
Ye Maoqing	
O'zbekistonda turizm sohasida smart texnologiyalar joriy etishning holati va yo'nalishlari.....	920
Qutbiddinov Shamsiddin Kamoliddin o'g'li	
Application of modern information systems in the assessment of the technical condition of the equipment of electrical energy networks.....	924
Sobirov Muzaffar Azatovich	
Стратегическое управление экономическим потенциалом Узбекистана.....	932
Садуллаева Муслимахон Саидамировна	
Auditda raqamli texnologiyalarni qo'llash tarixi va istiqbollari.....	936
Muydinov Erkin Djамaldinovich	
Bank majburiyatlari va aktivlarining vaqtinchalik nomutanosibliklari riskini kamaytirish.....	940
Ibrohimov D.M.	
Priority directions and legal bases of improving of the tax system of the Republic of Uzbekistan.....	945
Sadikov Iskandar Gayratovich	
Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik va bandlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash.....	950
Karshiyev Keldiyor Eshpulatovich	
O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish uchun ijtimoiy himoya va mehnat bozoriga kirishni kuchaytirish.....	954
Mamashokirova Iroda Samar qizi	
Soliq ma'murchiligi va raqobat muhitining o'zaro bog'liqligini nazariy asoslari.....	958
Donaboyev Jahongir Husan o'g'li	
Региональный туристский кластер – как инструмент повышения эффективности экономики региона.....	965
Юсупова Нигина Тажиевна	
Bank tizimida esg omillarining samaradorligini oshirishda marketing tadqiqotlaridan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslari.....	971
Xoliyov Murod Qahramon o'g'li	



Теоретические взгляды на цифровую экономику, цифровую трансформацию	977
Шарипова Шахло Истамовна	
Qoraqalpog'iston Respublikasining raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari va strategik yo'nalishlari.....	982
Tleubergenov Raxat Shahibaevich	
Mintaqalar transport tizimini kompleks rivojlantirish istiqbollarini tadqiq etishning ilmiy-uslubiy asoslari.....	986
Rahmonov Rasul Ne'matovich	
Loyiha boshqaruvida amaliy misollar orqali jinoyat holatlarini tahlili	994
To'yqulov Abbosjon Ali o'g'li	



LOYIHA BOSHQARUVIDA AMALIY MISOLLAR ORQALI JINOYAT HOLATLARINI TAHLILI

To'yqulov Abbosjon Ali o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

"Loyiha boshqaruvi" yo'nalishi 2-bosqich

24-16-guruh magistratura tinglovchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada loyiha boshqaruvida huquqbuzarliklar va jinoyat holatlarining turli sabablar va omillar ta'sirida yuzaga kelishi tahlil qilingan. Shuningdek, loyiha boshqaruvi sohasida uchraydigan jinoyat turlari — moliyaviy manipulyatsiyalar, byudjetni noqonuniy taqsimlash, korrupsiya va boshqa holatlar hamda ularni bartaraf etish yo'llari yuzasidan ilmiy xulosalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat holati, amaliyot, tahlil, jinoyat huquqi, huquqiy tahlil, muammolar, sabab va oqibatlar.

Abstract: This article analyzes the causes and factors contributing to the emergence of offenses and crimes in project management. It also presents scientific conclusions regarding types of crimes in the field of project management — financial manipulations, illegal budget allocation, corruption, and other cases, as well as ways to prevent them.

Key words: crime case, practice, analysis, criminal law, legal analysis, problems, causes and consequences.

Аннотация: В данной статье проанализированы причины и факторы, влияющие на возникновение правонарушений и преступлений в управлении проектами. Также представлены научные выводы относительно видов преступлений в сфере управления проектами — финансовые манипуляции, незаконное распределение бюджета, коррупция и другие случаи, а также пути их предотвращения.

Ключевые слова: преступление, практика, анализ, уголовное право, правовой анализ, проблемы, причины и последствия.

KIRISH

Loyiha boshqaruvi zamonaviy sharoitda nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki tashkilotlarning samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi eng muhim mexanizmlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, loyihalarni amalga oshirish jarayonida korrupsiya, manfaatlar to'qnashuvi va moliyaviy xatarlar kabi salbiy omillar yuzaga kelishi mumkin. Bu holatlar loyihaning byudjetiga, muddatlariga va natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatib, resurslardan samarali foydalanishni cheklaydi hamda ishonchlilikni pasaytiradi.

Mazkur masalalarning dolzarbligi shundaki, amaliy tajribada loyiha qarorlariga noqonuniy manfaatlarining aralashuvi jiddiy iqtisodiy va huquqiy oqibatlarga olib kelmoqda. Shu sababli, loyiha boshqaruvida yuzaga keladigan jinoyat holatlarini tahlil qilish, ularning sabablari va oqibatlarini aniqlash, shuningdek, ularni kamaytirish mexanizmlarini ishlab chiqish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Chet ellik olimlar Tomson va Lyuis ta'kidlaganidek, moliyaviy manipulyatsiyalar loyiha boshqaruvida ishonchsizlikni kuchaytiradi va har qanday loyihaning yakuniy natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ularning fikricha, loyiha boshqaruvida malakali audit va monitoring muhim ahamiyat kasb etadi.

Greyson va Martin moliyaviy manipulyatsiyalarning buxgalteriya hisobotlariga ta'siri haqida fikr bildirgan. Ularning ta'kidlashicha, moliyaviy hisobotlardagi xatolar ishlab chiqarish va investitsiya samaradorligini pasaytiradi, bu esa kompaniyaning moliyaviy xavfini oshiradi¹.

Smit va Karter qaror qabul qilish jarayonida korrupsiya va manipulyatsiyalarning salbiy ta'sirini tahlil qilgan. Ularning ta'kidlashicha, qarorlarning obyektiv va aniq qabul qilinishi loyiha faoliyatining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi².

1 Greyson, T. & Martin, A. (2016). *Financial manipulation and its effect on project management*. International Journal of Construction Safety, 13(1), 44-57.

2 Smit, P. & Karter, R. (2017). Corruption and decision-making in large-scale projects. Journal of Project Finance, 22(6), 118-134.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot metodologiyasi doirasida ma'lumotlar ochiq manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar va loyiha boshqaruvi o'ldir amaliy misollar asosida yig'ildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil usuli orqali qayta ishlanib, manfaatlar to'qnashuvi, moliyaviy xatarlar va korrupsiya holatlarining o'zaro bog'liqligi aniqlab chiqildi hamda nazariy qarashlar amaliy misollar bilan solishtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Loyiha boshqaruvi huquqbuzarliklar va jinoyat holatlari turli sabablar va omillar ta'sirida yuzaga kelishi mumkin. Ushbu amaliy misollar orqali loyiha boshqaruvidagi jinoyat holatlari tahlil qilinadi.

Qurilish loyihasida byudjet manipulyatsiyalari bo'yicha misol. 2017-yilda AQShda "Shteynberg qurilish" kompaniyasida moliyaviy manipulyatsiyalar yuzasidan jinoyat ishi ko'rib chiqilgan. Kompaniya rahbarlari va moliya bo'limi o'z hisobotlarida ish haqi va qurilish materiallari xaridlarini sun'iy ravishda oshirib ko'rsatgan. Bu manipulyatsiyalar qurilish loyihalari uchun ajratilgan byudjet mablag'larining o'zlashtirilishiga olib kelgan.

Loyiha boshqaruvi sohasida uchraydigan jinoyat turlari qatoriga moliyaviy manipulyatsiyalar, byudjetni noqonuniy taqsimlash, korrupsiya va boshqa holatlar kiradi. Bunday huquqbuzarliklarning oqibatlari loyiha muddatlarining ortishi, loyiha mutasaddilariga nisbatan ishonchsizlikning kuchayishi hamda qonun hujjatlariga muvofiq jarimalar va kompensatsiyalar qo'llanilishiga olib keladi.

Qurilishda xavfsizlik talablariga rioya etmaslik bo'yicha misol. 2018-yilda "Grinvud qurilish" kompaniyasining qurilish maydonida xavfsizlik talablariga rioya qilinmaganligi oqibatida fojiali hodisa yuz bergan. Loyiha rahbarlari qurilishdagi xavfsizlik qoidalarini buzganlari sababli ishchilardan biri qurilish texnikasi bilan bog'liq og'ir jarohat olgan. Bundan tashqari, ishchilarga kaska va maxsus ish kiyimlari taqdim qilinmagan.

Loyiha boshqaruvi sohasida xavfsizlik talablariga rioya etmaslik jinoyat tusini olishi mumkin, chunki u ishchilarning hayotiga xavf tug'diradi. Bunday holatlarning oqibatlari ishchilarning turli jarohatlar olishi, loyiha muddatlarining ortishi hamda kompaniyaga qonun asosida jarimalar va kompensatsiyalar qo'llanilishiga olib keladi.

Qurilish va ishlab chiqarishda xavfsizlik normalariga rioya etilmasligi milliy va xalqaro standartlarning buzilishiga, kiber va fizik xavflarning ortishiga hamda ishchi jamoasi uchun jiddiy oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, qurilish maydonlarida xavfsizlik rejaları ishlab chiqilmaganligi, mutaxassislar himoya vositalaridan foydalanmaganligi yoki ishchilar xavfsizlik bo'yicha yetarli ta'lim olmaganligi muammolarga olib keladi.

Natijada, qurilish maydonlarida ishchilarning himoya vositalaridan (kaska, maxsus kiyim) foydalanmasligi, qurilish materiallari va mexanizmlarini xavfsizlik talablariga zid tarzda ishlatish yoki treninglarning yetarli darajada o'tkazilmasligi ishchilarning jarohatlanishi yoki halokatga uchrashiga sabab bo'lishi mumkin. Bu esa loyiha muddatlari va xarajatlarning ortishiga hamda yuridik va moliyaviy jazolarga olib keladi.

Qurilish sohasida xavfsizlik talablariga rioya etmaslik masalasi bir qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Masalan, Djonson va Rodjers o'z izlanishlarida qurilish maydonlarida xavfsizlik talablariga amal qilinmasligi ishchilar jarohatlanishiga olib kelishini ko'rsatib o'tgan va qurilish sohasida qat'iy xavfsizlik standartlari hamda tekshiruvlar belgilanishi zarurligini ta'kidlagan³.

Hisobotlarda xato yoki manipulyatsiyalar bo'yicha misol. 2016-yilda "Primeks" kompaniyasida moliyaviy manipulyatsiyalar va hisobotlarda xatoliklar bilan bog'liq jinoyat holati aniqlangan. Kompaniya rahbarlari buxgalteriya hisobotlarini tuzishda o'zlashtirish va moliyaviy manipulyatsiyalarni amalga oshirgan. Ushbu jinoyat ishi natijasida kompaniya bir nechta yo'nalishlarda jarimalar va kompensatsiyalar to'lagan. Bundan tashqari, kompaniyaning moliyaviy holati yomonlashgani va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari pasaygani qayd etilgan.

Loyiha boshqaruvi sohasida uchraydigan jinoyat turlariga moliyaviy manipulyatsiyalar va hisobotlarda xatoliklar kiradi. Hisobotlarda xato yoki manipulyatsiyalarning oqibatlari moliyaviy zararlar va qonunbuzarliklarni keltirib chiqaradi, kompaniyaga bo'lgan ishonchni pasaytiradi hamda ro'yxatdan chiqarish, jarimalar va kompensatsiyalar qo'llanilishiga olib keladi.

Qaror qabul qilish jarayoniga noqonuniy aralashish oqibatida loyiha natijalari buzilishi, loyiha tashkilotiga bo'lgan ishonchning susayishi, yirik moliyaviy zararlarining yuzaga kelishi hamda qonunga zid qarorlar va yuridik oqibatlarining kelib chiqishi mumkin.

Bu holatlarda loyiha boshqaruvi uchun aniq va qat'iy qonunlar, monitoring tizimlari va auditlar zarur bo'lib, ular jinoyatlarga qarshi kuchli vosita bo'lishi mumkin. Shuningdek, loyiha boshqaruvi sohasida doimiy monitoring tizimining joriy etilishi jinoyatlarning barvaqt oldini olishga hamda ularning ortib borishining oldini olishga xizmat qiladi.

3 Djonson, B. & Rodjers, M. (2017). Construction safety: A comprehensive review. Journal of Construction Engineering, 39(5), 234-245.



Loyiha boshqaruvida korrupsiya, manfaatlar to'qnashuvi va moliyaviy xatarlar alohida muhim va ta'sirchan omillar hisoblanadi. Bu omillar loyihaning bajarilishiga putur yetkazishi, resurslarning noqonuniy taqsimlanishiga sabab bo'lishi va loyiha natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida konstitutsiyaviy, institutsional va strategik darajalarda shakllanib bormoqda. Korrupsiyaga qarshi siyosiy iroda mustahkamlanishi natijasida ushbu sohadagi huquqiy asoslar tizimli tarzda rivojlantirilgan. Xususan, 2017-yilda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun korrupsiyaga qarshi siyosatning institutsional mezonlarini belgilab, ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi subyektlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va koordinatsiyani huquqiy jihatdan mustahkamladi. Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy yo'nalishlari — profilaktika, aniqlash, javobgarlik va ijtimoiy nazorat bo'yicha tamoyillar ilk bor tizimli tarzda yoritildi.

Shu bilan birga, 2020-yilda Prezident Farmoni asosida tashkil etilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bu boradagi huquqiy va institutsional islohotlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Agentlik faoliyati korrupsiyaviy xavflarni baholash, davlat organlari faoliyatidagi shaffoflik darajasini tahlil qilish, antikorrupsion ekspertiza tizimini joriy etish kabi yo'nalishlarga qaratildi. Bu esa korrupsiyaga qarshi kurashni nafaqat jazoga asoslangan yondashuv, balki oldini olish va barqaror tizim yaratish orqali amalga oshirishga yo'naltirilgan strategiyaning shakllanayotganidan dalolat beradi.

Strategik hujjatlar darajasida ham korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosatining doimiy yo'nalishiga aylandi. 2019–2024-yillar uchun mo'ljallangan "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat dasturi" va 2021–2025-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da korrupsiyani kamaytirishga qaratilgan qat'iy choralar belgilandi. Ayniqsa, davlat xaridlari, litsenziyalash, kadrlar tanlovi, raqamlashtirish va ochiqlik siyosatini kengaytirish orqali korrupsiya xavflarini kamaytirish mexanizmlari ishlab chiqildi.

Huquqiy bazaning shakllanishida korrupsiyaga qarshi kurashni boshqa strategik yo'nalishlar bilan integratsiyalash muhim ahamiyat kasb etdi. Masalan, davlat xizmatini isloh qilish, sud-huquq tizimining mustaqilligini ta'minlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish kabi islohotlar korrupsiyani tizimli ravishda kamaytirishga xizmat qilmoqda. Bu esa korrupsiyaga qarshi kurash siyosatini sektorlararo va kompleks yondashuv asosida shakllantirish imkonini bermoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi huquqiy asoslar va strategik yondashuvlar bosqichma-bosqich takomillashib, ularning siyosiy va amaliy o'rni davlat boshqaruvi samaradorligini hamda jamoatchilik ishonchini oshirishda muhim omilga aylanmoqda. Shu orqali korrupsiyaga qarshi kurash nafaqat jazolovchi, balki profilaktik va institutsional xavfsizlikni mustahkamlovchi kompleks davlat siyosatiga aylanishga yo'naltirilmoqda.

Shuni aytish joizki, har bir sohada jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yetarli tizim hamda profilaktik chora-tadbirlar amalga oshirilsa, jamiyat va davlat manfaatlariga jiddiy ziyon yetishining oldi olinadi. Shuningdek, 2021–2025-yillar davomida qabul qilingan Qonunlar va Prezident qarorlari orqali korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy bazasi yangilandi va kengaytirildi. Bu hujjatlar korrupsiyaning oldini olish, fuqarolik nazoratini kuchaytirish, davlat xizmatlarida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash kabi yo'nalishlarda ijtimoiy ta'sirni oshirishga xizmat qilmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatining samaradorligi nafaqat milliy darajadagi me'yoriy-huquqiy va institutsional islohotlar, balki xalqaro tashkilotlarning baho va reytinglari bilan ham chambarchas bog'liqdir. Transparency International tashkiloti tomonidan har yili e'lon qilinadigan "Korrupsiyani qabul qilish indeksi" (CPI) korrupsiyaga qarshi kurashda davlat siyosati samaradorligini o'lchovchi eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

O'zbekistonning CPI reytingidagi o'rni 2012-yildan buyon bosqichma-bosqich o'zgarib kelmoqda. 2018-yildan keyingi davrda esa ijobiy siljishlar kuzatildi, bu esa mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati kuchayganini va xalqaro miqyosda e'tirof etilganini ko'rsatadi. Jumladan, 2020-yilda O'zbekiston 180 ta davlat orasida 146-o'rinni egallagan bo'lsa, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 126-o'ringa yaxshilandi.

Mazkur ijobiy o'zgarishlar, avvalo, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tashkil etilishi, korrupsiyaning oldini olish bo'yicha sektorlararo hamkorlikning kuchaytirilishi, shuningdek, ochiq ma'lumotlar portallari va raqamlashtirish jarayonlarining rivojlanishi bilan bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida korrupsiyaga quyidagicha tarif berilgan: "Korrupsiya — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishdir"⁴.

4 2019-yil 3-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli Qonuni



Loyihalarni amalga oshirish jarayonida korrupsiya holatlariga yo'l qo'yilishi loyihaning sifatiga va uning o'z vaqtida bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan eng muhim xavf omillaridan biridir. Shu bois, loyiha boshqaruvida korrupsiya yuzaga kelishi mumkin bo'lgan holatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish mexanizmlarini joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Korrupsiya loyiha boshqaruvidagi eng katta va xavfli muammolardan biri sifatida namoyon bo'ladi. U, avvalo, loyiha byudjetidan noqonuniy foydalanish, tender jarayonlarida favoritizmga yo'l qo'yish, mablag'larni o'zlashtirish hamda qaror qabul qilishda shaxsiy manfaatlarni ko'zlash orqali ifodalanadi. Korrupsiyaning o'ziga xos jihati shundaki, u katta miqdordagi mablag'larni talon-taroj qilish, loyiha maqsadlarini buzish, davlat va xususiy sektorni moliyaviy javobgarlikka olib kelish kabi jiddiy oqibatlariga sabab bo'ladi.

Korrupsiyaning oqibatlari sifatida loyiha byudjetining ortishi va noqonuniy xarajatlar, loyihaning amalga oshirish muddati cho'zilishi, ish samaradorligining pasayishi, loyiha faoliyatining ishonchligi susayishi, ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining kamayishi hamda qonunbuzilishlarga olib keladigan yuridik muammolarni qayd etish mumkin.

Manfaatlar to'qnashuvi esa loyiha boshqaruvida muhim xavf omillaridan biridir. U shaxsiy yoki tashkilot manfaatlarini loyiha maqsadlariga zid bo'lgan holatlarda yuzaga keladi. Odatda, qaror qabul qilish jarayonida ayrim shaxslar yoki guruhlar o'z shaxsiy manfaatlarini umumiy maqsadlarga nisbatan ustun qo'yishi natijasida yuzaga keladi. Bu holat loyihaning borishi va natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida manfaatlar to'qnashuviga quyidagicha ta'rif berilgan: "Manfaatlar to'qnashuvi — shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlarini o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyatdir"⁵.

Loyiha boshqaruvida manfaatlar to'qnashuvi ko'pincha rahbarlar yoki boshqaruvchilarning shaxsiy manfaatlarini qonuniy manfaatlardan ustun qo'yishi, loyiha a'zolarining moliyaviy yoki shaxsiy manfaatlarini rivojlantirishga intilishi, shuningdek, loyihaning maqsadlariga erishishda shaxslararo egalik munosabatlaridan foydalanish oqibatida yuzaga keladi.

Bunday holatlar loyihaning byudjeti noto'g'ri taqsimlanishiga, natijalarga nisbatan ishonchsizlikning kuchayishiga hamda loyiha muddatlari va resurslariga ehtiyoj buzilishiga olib kelishi mumkin. Masalan, "ABC korporatsiya"ning 2018-yildagi bir tenderida manfaatlar to'qnashuvi aniqlangan. Ushbu tender jarayonida shaxsiy manfaatlar ustuvor qo'yilib, kompaniya rahbarlarining yaqinlariga g'alaba qozonish imkoniyati berilgan. Natijada tanlangan kompaniyaning malaka va imkoniyatlari loyihani to'liq amalga oshirishga yetarli bo'lmagan va bu ijro sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Moliyaviy xatarlar ham loyiha boshqaruvi uchun muhim xavf omillaridan hisoblanadi. Ular, odatda, ortiqcha xarajatlar, resurslardan noto'g'ri foydalanish yoki muddatlarning buzilishi natijasida yuzaga keladi. Moliyaviy xatarlar loyihaning moliyaviy barqarorligini susaytirib, yo'qotishlarga va ishtirokchilar o'rtasida ishonchsizlikning kuchayishiga sabab bo'ladi.

Moliyaviy xatarlarning sabablari sifatida loyiha mablag'larini noto'g'ri taqsimlash, byudjetdagi nomutanosibliklar, noqonuniy xarajatlar, hisobotlarda manipulyatsiyalar hamda qaror qabul qilishda qonuniy me'yorlardan chetga chiqish kabi omillarni keltirish mumkin. Ularning oqibatlari esa quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- moliyaviy zararlarining ortishi va yuridik xarajatlarning ko'payishi;
- loyiha ishtirokchilari o'rtasida ishonchsizlik va nizolarning yuzaga kelishi;
- moliyaviy va huquqiy normalarning buzilishi natijasida yuridik muammolarning kelib chiqishi.

Korrupsiya, manfaatlar to'qnashuvi va moliyaviy xatarlarning integratsiyasi loyiha boshqaruvi uchun eng xavfli vaziyatlardan biridir. Ular bir-biri bilan chambarchas bog'langan: korrupsiyaga yo'l qo'yilganda, odatda, manfaatlar to'qnashuvi va moliyaviy xatarlar ham kuchayadi. Bunday sharoitda shaxsiy manfaatlar loyiha maqsadlariga zid qo'yiladi, moliyaviy resurslar esa adolatsiz va samarasiz tarzda taqsimlanadi. Natijada loyiha ijrosi sekinlashadi, uning sifat ko'rsatkichlari pasayadi hamda moliyaviy barqarorlik izdan chiqadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Loyiha boshqaruvi jarayonida jinoyat holatlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, manfaatlar to'qnashuvi, moliyaviy xatarlar va korrupsiya o'zaro chambarchas bog'langan holda loyihalarning muvaffaqiyatiga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi. Amaliy misollar shuni tasdiqlaydiki, loyiha rahbarlari va ishtirokchilari shaxsiy manfaatlarini ustun

5 2019-yil 3-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-sonli Qonuni



qo'ygan holatlarda byudjetning noto'g'ri taqsimlanishi, resurslardan samarasiz foydalanish, loyiha natijalariga ishonchsizlik va hatto yuridik muammolarning yuzaga kelishi ehtimoli ortadi. Ayniqsa, korrupsiya holatlari manfaatlar to'qnashuvini kuchaytirib, moliyaviy resurslar ustidan nazoratni susaytiradi va natijada loyihaning sifat ko'rsatkichlarini pasaytiradi.

Shu bois, loyiha boshqaruvida manfaatlar to'qnashuvi, moliyaviy xatarlar va korrupsiya xavflarini oldindan aniqlash va ularni kamaytirish mexanizmlarini joriy etish zarur. Bunda shaffoflikni ta'minlash, samarali ichki nazorat tizimlarini qo'llash, manfaatdor tomonlarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilash hamda loyiha jarayonida ochiqlikni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur choralar nafaqat jinoyat holatlarini kamaytiradi, balki loyihaning barqaror rivojlanishi, ishonchligi va yuqori samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Томсон, Л. & Льюис, К. (2019). Financial risk and manipulation in construction projects. *Environmental Policy Journal*, 12(2), 87-103.
2. Джонсон, Б. & Роджерс, М. (2017). Construction safety: A comprehensive review. *Journal of Construction Engineering*, 39(5), 234-245.
3. Грейсон, Т. & Мартин, А. (2016). Financial manipulation and its effect on project management. *International Journal of Construction Safety*, 13(1), 44-57.
4. Смит, П. & Картер, Р. (2017). Corruption and decision-making in large-scale projects. *Journal of Project Finance*, 22(6), 118-134.
5. 2019 йил 3-январдаги "Ўзбекистон Республикаси Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида"ги ЎРҚ-419-сонли Қонуни.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
